

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

QIZILQUM JAVOHIRI — NAVOIY SHAHRINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Sobirov Zafar Karimovich

2-sonli Toshkent akademik litseyi, oliy toifali o'qituvchi.

Annotatsiya.

Maqolada Navoiy shahrining 1950–1960-yillardagi tashkil topishi va dastlabki rivojlanish jarayoni tarixiy-xronologik hamda tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shaharning vujudga kelishi Qizilqum mineral resurslarini o'zlashtirish, Uchquduq konining aniqlanishi, sanoat, suv, energetika va transport infratuzilmasining yaratilishi bilan bog'liq holda yoritiladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK)ning tashkil etilishi, shaharning bosh rejasi, turar-joy qurilishi hamda Leningrad me'morlik maktabi vakillarining faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Qizilqum, Karmana, Uchquduq, NKMK, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, shaharsozlik, bosh reja.

ЖЕМЧУЖИНА КЫЗЫЛКУМА — ИСТОРИЯ ОСНОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ГОРОДА НАВОИ

Собиров Зафар Каримович

Ташкентский академический лицей № 2, учитель высшей категории.

Аннотация.

В статье на основе историко-хронологического и системного подходов анализируются процесс основания города Навои и начальный этап его развития в 1950–1960-е годы. Возникновение города рассматривается во взаимосвязи с освоением минеральных ресурсов Кызылкума, открытием Учкудукского месторождения, а также созданием промышленной, водной, энергетической и транспортной инфраструктуры. Анализируются создание Навоийского горно-металлургического комбината (НГМК), генеральный план города, жилищное строительство и деятельность представителей ленинградской архитектурной школы.

Ключевые слова: Навои, Кызылкум, Кармана, Учкудук, НГМК, индустриализация, урбанизация, градостроительство, генеральный план.

THE JEWEL OF THE KYZYLKUM — THE HISTORY OF THE FOUNDATION AND DEVELOPMENT OF NAVOI CITY

Sobirov Zafar Karimovich

Tashkent Academic Lyceum No. 2, Teacher of the Highest Qualification Category.

Abstract.

The article analyzes the foundation of the city of Navoi and the initial stage of its development in the 1950s–1960s using historical-chronological and systematic approaches. The emergence of the city is examined in connection with the development of the mineral resources of the Kyzylkum Desert, the discovery of the Uchkuduk deposit, and the establishment of industrial, water, energy, and transport infrastructure. The study also analyzes the establishment of the Navoi Mining and Metallurgical Combine (NMMC), the city's master plan, residential construction, and the activities of representatives of the Leningrad school of architecture.

Keywords: Navoi, Kyzylkum, Karmana, Uchkuduk, NMMC, industrialization, urbanization, urban planning, master plan.

Kirish. Navoiy — O'zbekistonning Navoiy viloyatidagi shahar. Bu shahar Navoiy viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. O'zbekistonning janubi-g'arbida, viloyatning sharqiy chekkasida, 347 m balandlikda joylashgan. Navoiy viloyati 1982-yilda tashkil etilganda shahar ma'muriy markazga aylangan. Markazi Navoiy shahri bo'lgan viloyat g'arb va janubi-g'arbdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan, janubdan Qashqadaryo, janubi-sharqdan Samarqand, sharqdan Jizzax viloyati bilan, shimoldan Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradoshdir. Viloyat hududi 111,0 ming kv. km bo'lib, respublika hududining 25 foizini yoki to'rtidan bir qismini egallaydi. Navoiy iqlimi keskin kontinental, cho'l iqlimi. Viloyatning shimoliy hududlarida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 232 mm ni, janubiy hududlarida esa o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 170 mm ni tashkil etadi. Yoz oylarida havo harorati +48,2° gacha isib ketishi va qish oylarida -32,3° gacha sovib ketishi kuzatilgan. Viloyatning markazi bo'lgan Navoiy shahri dengiz sathidan 340 metr balandlikda joylashgan bo'lib, buyuk allomamiz Alisher Navoiy sharafiga atab shunday nomlangan. Shaharning hozirgi hududi o'rnida cho'l bo'lgan. Navoiy shahrining hududi 35 km² dir. Shahar Navoiy viloyatining janubidagi Zarafshon daryosi yaqinida, Toshkent shahridan 360 km janubi-g'arbda joylashgan. Samarqandgacha bo'lgan masofa 140 km, Buxorogacha — deyarli 100 km. Shaharning shimolidan Zarafshon daryosi oqadi. Shahar chekkasidan 10 km shimolda, Zarafshon daryosi qirg'oqlaridan tashqarida Nurota tog'lari cho'zilgan.

Shimolda qadimiy Karmana shahri joylashgan bo'lib, o'tmishda Buxoro amirligining bekligi hisoblangan.

Navoiy shahrining tashkil topishi Qizilqum hududida olib borilgan geologik-qidiruv ishlari, avvalo, uran konlarini aniqlash va ularni sanoat miqyosida o'zlashtirish zarurati bilan bog'liq edi. NKMKning rasmiy tarixiy ma'lumotlariga ko'ra, 1952-yilda Uchquduq koni ochilgan, 1956-yilda esa doimiy suv ta'minoti majmuasi, GRES, Navoiy-Uchquduq temir yo'li va aeroport qurilishi boshlangan.¹

Shunday qilib, Navoiy shahrining vujudga kelishida uchta o'zaro bog'liq jarayonni ko'rish mumkin: mineral resurslarni aniqlash, ularni o'zlashtirish uchun sanoat-infratuzilma bazasini yaratish va ushbu ishlab chiqarish tizimiga xizmat qiluvchi zamonaviy shaharni barpo etish.

1958-yil Navoiy tarixida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan shu yili Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etildi va Karmana stansiyasi yonida bunyod etilayotgan yangi shaharga buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy nomi berildi.²

Navoiy shahrining tashkil topishi tarixini o'rganishning dolzarbligi shundaki, shahar qisqa tarixiy davr ichida sanoat korxonalariga xizmat qiluvchi oddiy ishchilar posyolkasidan yagona bosh reja asosida shakllantirilgan industrial markazga aylandi. Sovet davri ensiklopedik manbalarida Navoiy yangi shahar sifatida yagona bosh reja asosida qurilgani, uning me'moriy qiyofasida seksiyali va galereyali turar-joylar, yashil hududlar, favvoralar va basseynlardan foydalanilgani qayd etiladi.³

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Navoiy shahrining tashkil topishi va rivojlanish tarixiga oid manbalarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinci guruhni Navoiy kon-metallurgiya kombinatining rasmiy tarixiy materiallari va xronikalari tashkil etadi. Mazkur manbalarda 1952-yilda Uchquduq konining ochilishi, 1956-yilda suv, energetika, transport va aeroport qurilishining boshlanishi, 1958-yilda NKMK tashkil etilishi va Navoiy shahri qurilishining boshlanishi, 1964-yilda birinchi gidrometallurgiya zavodining ishga tushirilishi, 1967-yilda Muruntov konida birinchi portlatish va 1969-yilda birinchi oltin yombisining olinishi kabi muhim sanalar qayd etilgan.⁴

Ikkinchi guruhga Navoiy KMK Markaziy arxivi va davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar kiradi. Ushbu materiallar shahar qurilishi, ishlab chiqarish obyektlari, ishchi-xodimlar uchun uy-joy va ijtimoiy-madaniy obyektlarni barpo etish jarayonlarini aniqlashtirish imkonini beradi.⁵

Uchinchi guruhni sovet davri ensiklopedik va shaharsozlik nashrlari tashkil etadi. Xususan, "Большая советская энциклопедия"ning "Навои" maqolasida shahar 1960-yillarda yagona bosh reja asosida qurilgan yangi shahar sifatida tavsiflanadi. Unda A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va muhandis G. P. Smorodin shahar bosh rejasi va qurilishining mualliflari sifatida qayd etilib, ularning 1969-yilda SSSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangani ko'rsatiladi.⁶

To'rtinchi guruhga Navoiy shahri va NKMK tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kiradi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida tayyorlangan tadqiqotlarda Navoiy shahrining tashkil topishi NKMKning vujudga kelishi, ishchi-xodimlar uchun uy-joy va ijtimoiy-madaniy obyektlarning barpo etilishi bilan bevosita bog'liqligi qayd etilgan.⁷

Shuningdek, I. B. Orlov va N. I. Simonovning Navoiy va Shevchenko kabi yangi shaharlarni ekstremal tabiiy sharoitlarda yaratishdagi faoliyati keyingi arxitektura tadqiqotlarida ham qayd etilgan. "Архитектурный Петербург" jurnalining 2025-yilgi materialida ular 1975-yilda ser Patrik Aberkrombi xalqaro mukofotiga Navoiy va Shevchenko shaharlarini yaratishdagi xizmatlari uchun sazovor bo'lgani ko'rsatiladi.⁸

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy shahri tarixi bo'yicha mavjud materiallarda asosan sanoat, konchilik, me'morchilik va urbanizatsiya masalalari alohida yo'nalishlarda yoritilgan. Mazkur tadqiqotda esa ushbu yo'nalishlar yagona tarixiy jarayon doirasida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasini tarixiylik, tizimlilik, xolislik va manbalarni qiyosiy tahlil qilish tamoyillari tashkil etadi. Tarixiy-xronologik metod orqali Navoiy shahrining shakllanish bosqichlari ketma-ketlikda o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida arxiv hujjatlari, NKMK tarixiy materiallari, ensiklopedik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar o'zaro solishtirildi. Matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan ham qisman foydalanildi.

Tizimli yondashuv Navoiy shahrining tashkil topishini "kon — ishlab chiqarish — infratuzilma — urbanizatsiya" tizimining o'zaro ta'siri sifatida baholash imkonini berdi.

3. MUHOKAMA

3.1. Qizilqumning mineral-xomashyo salohiyati va Uchquduq omili

Bizga ma'lumki, yosh va navqiron Navoiy shahrining tashkil etilishi tarixini Markaziy Qizilqumning mineral-xomashyo boyliklari va salohiyatini o'zlashtirish jarayonidan ajratib o'rganish mumkin emas. XX asr o'rtalarida dunyoda sovuq urush munosabati bilan boshlangan qurollanish poygasi va uran xomashyosiga bo'lgan ehtiyojning ortishi sovet davlatida geologik-qidiruv ishlarini jadallashtirishga undadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida SSSRning atom loyihasi shakllana boshlashi uran konlarini izlashni strategik vazifalardan biriga aylantirdi. 1942-yil 28-sentabrdagi maxfiy qaror va 1943-yil 30-iyuldagi qarorlar atom energetikasi va yadro quroli uchun zarur bo'lgan uran xomashyosini izlash, qazib olish va geologik-qidiruv ishlarini tashkil etish choralari belgilagan.⁹

Dastlab Markaziy Qizilqumda olib borilgan qidiruv ishlari natijasida 1952-yilda Uchquduq koni ochildi. NKMKning rasmiy tarixiy xronikasida ushbu sana hududdagi keyingi sanoat o'zlashtirish jarayonining muhim bosqichi sifatida qayd etiladi.¹⁰

Uchquduq konining aniqlanishi faqat yangi qazib olish obyektining paydo bo'lishini anglatmadi. Konni o'zlashtirish uchun transport, energetika, suv ta'minoti, aloqa, uy-joy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish zarur

edi. Shu tariqa geologik kashfiyot hududiy urbanizatsiya uchun iqtisodiy asosga aylandi.

3.2. Karmana hududining tanlanishi

Navoiy shahrining Karmana temir yo'l stansiyasi yaqinida barpo etilishi bir qator geografik va iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. Avvalo, temir yo'lning mavjudligi yangi sanoat markazini mamlakatning boshqa hududlari bilan bog'lash imkonini berdi. Ikkinchidan, Zarafshon vodiysining mavjudligi suv va aholi joylashuvi uchun nisbatan qulay sharoit yaratdi. Uchinchidan, Karmana hududining tarixiy aholi va xo'jalik markazi sifatidagi mavqeyi yangi shahar uchun muhim hududiy tayanch vazifasini bajardi.

1956-yilda Navoiy hududida doimiy suv ta'minoti majmuasi, GRES, Navoiy-Uchquduq temir yo'li va aeroport qurilishi boshlandi.¹¹ Mazkur obyektlarning bir vaqtning o'zida barpo etilishi Navoiy loyihasining oddiy aholi manzilgohi emas, balki yirik sanoat markazi sifatida rejalashtirilganini ko'rsatadi.

Navoiy shahrining shakllanishida suv masalasi ayniqsa muhim edi. Cho'l sharoitida yirik sanoat korxonalari va ko'p sonli aholini doimiy suv bilan ta'minlash butun urbanistik loyihaning asosiy shartlaridan biri bo'lgan.

Transport infratuzilmasi ham hududning sanoat jihatidan o'zlashtirilishida muhim rol o'ynadi. Navoiy-Uchquduq temir yo'lining 1960-yilda ishga tushirilishi, 1961-yilda esa yo'lovchi tashish uchun ochilishi shahar bilan konchilik hududlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi.¹²

3.3. NKMKning tashkil etilishi va shahar funksiyasining shakllanishi

1958-yil Navoiy shahri tarixidagi tub burilish davri bo'ldi. NKMK rasmiy xronikasida 1-sentabr Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tashkil topgan kuni sifatida qayd etiladi. Shu yili Karmana stansiyasi yonida bunyod etilayotgan shaharga Alisher Navoiy nomi berildi.¹³

NKMKning tashkil etilishi Navoiy shahrining iqtisodiy vazifasini aniq belgilab berdi. Bir tomondan, kombinat ishlab chiqarish, bandlik va texnik rivojlanishning asosiy markazi bo'ldi. Ikkinchi tomondan, shahar kombinat ishchilari, muhandis-texnik xodimlari va ularning oilalari uchun turar-joy, ijtimoiy va madaniy muhitni ta'minlashi kerak edi.

1958-yil oxiriga kelib doimiy suv ta'minoti kompleksi, Navoiy rayon elektr stansiyasi, Navoiy-Uchquduq temir yo'li, tajriba-ishlab chiqarish obyektlari va yangi shahar qurilishi uchun zarur infratuzilmaning asosiy qismlari shakllantirildi.¹⁴

Shunday qilib, Navoiy shahri "shahar — korxona" emas, balki "korxona — infratuzilma — shahar" o'zaro bog'liqligiga asoslangan urbanistik model sifatida shakllana boshladi.

3.4. Navoiy shahrining bosh rejasi va turar-joy qurilishi

Navoiy shaharsozligining muhim xususiyati uning yagona bosh reja asosida rivojlantirilganidadir. Sovet davri ensiklopedik manbalarida Navoiy 1960-yillarda yagona bosh reja asosida qurilgan yangi shahar sifatida tavsiflanadi.¹⁵

1959-yil 13-dekabrda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 775-63-sonli qarori bilan Navoiy shahrini dastlab 50 ming, keyingi bosqichda esa 70 ming aholiga mo'ljallab qurish rejasi tasdiqlanganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.¹⁶

Mazkur qaror shaharning uzoq muddatli istiqbol asosida rejalashtirilganini ko'rsatadi. Aholi sonining oldindan belgilanishi sanoat korxonalarining kelajakdagi mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan.

1960-yil 5-avgustdagi 1072s-sonli topshiriq asosida kombinat ishchi-xodimlari uchun uy-joy va boshqa obyektlarni barpo etish loyihasi boshlangan.¹⁷ Bu bosqichda shahar qurilishi ishlab chiqarish obyektlaridan tashqari turar-joy, ijtimoiy-madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini kompleks ravishda yaratishga yo'naltirildi.

3.5. Leningrad me'morlik maktabi va Navoiy shaharsozligi

Navoiy shahrining me'moriy qiyofasini yaratishda Leningrad shaharsozlik maktabi vakillarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etdi. A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va G. P. Smorodin shahar bosh rejasi va qurilishining asosiy mutaxassislari sifatida qayd etiladi.¹⁸

Sovet davri ensiklopedik manbalarida Navoiydagi seksiyali va galereyali turar-joylar, yashil hududlar, favvoralar va basseynlar shaharning o'ziga xos me'moriy qiyofasini yaratgani ko'rsatiladi.¹⁹

Mazkur yechimlar Navoiy joylashgan tabiiy-iqlim sharoiti bilan bevosita bog'liq edi. Qizilqumga yaqin hududning issiq va quruq iqlimi shahar muhitida soyali, ko'kalamzorlashtirilgan va suv elementlariga ega makonlarni yaratishni taqozo etgan.

Galereyali turar-joylarning qo'llanilishi ham iqlimiy sharoitga moslashuvning me'moriy ko'rinishlaridan biri bo'ldi. Bunday binolarda ochiq va yarim ochiq makonlar orqali shamollatish va soyalash imkoniyatlarini oshirishga intilish kuzatiladi.

Navoiy shahrining bosh rejasi va qurilishida faoliyat ko'rsatgan me'morlarning xizmatlari 1969-yilda SSSR Davlat mukofoti bilan e'tirof etildi. Manbalarida A. V. Korotkov ish rahbari, V. N. Ivanov, I. B. Orlov va N. I. Simonov me'morlar, G. P. Smorodin esa muhandis-konstruktor sifatida ko'rsatiladi. Mukofot Navoiy shahrining me'morchiligini yaratishdagi xizmatlari uchun berilgan.²⁰

Bu fakt Navoiy shahrining me'moriy yechimlari o'z davrida professional shaharsozlik nuqtayi nazaridan yuqori baholanganini ko'rsatadi.

3.6. I. B. Orlov va N. I. Simonov faoliyatining xalqaro e'tirofi

Navoiy shaharsozlik maktabining ahamiyatini faqat 1969-yilgi davlat mukofoti bilan cheklab bo'lmaydi. 1975-yilda I. B. Orlov va N. I. Simonov ser Patrik Aberkrombi nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlangan. "Архитектурный Перепбпр" nashrining 2025-yilgi materialida ushbu mukofot ularga Navoiy (O'zbekiston) va Shevchenko (hozirgi Aqtau, Qozog'iston) shaharlarini ekstremal tabiiy sharoitlarda yaratishdagi xizmatlari uchun berilgani qayd etiladi.²¹

Mazkur fakt Navoiy shahrining urbanistik tajribasi sovet davri doirasidan tashqarida ham shaharsozlik yutug'i

sifatida baholanganini ko'rsatadi.

3.7. 1960-yillarda Navoiy sanoat makonining kengayishi

1960-yillarda Navoiy shahrining iqtisodiy funksiyasi yangi ishlab chiqarish obyektlarining tashkil etilishi bilan kengaydi. 1964-yilda Navoiy shahrida birinchi gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilib, uran ma'danlarini qayta ishlash boshlandi.²²

Keyingi muhim bosqich Muruntov konining o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'ldi. NKMK rasmiy tarixiy ma'lumotlariga ko'ra, 1967-yil 1-martda Muruntov konida birinchi portlatish amalga oshirildi va konni ochiq usulda o'zlashtirish boshlandi. 1969-yil 21-iyulda esa 2-gidrometallurgiya zavodida Muruntov ma'danidan 11 kilogramm 820 gramm og'irlikdagi birinchi oltin yombisi olindi.²³

Mazkur jarayon Navoiy shahrining iqtisodiy ahamiyatini tubdan kengaytirdi. Shahar dastlab uran xomashyosini o'zlashtirish bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik oltin sanoatining rivojlanishi natijasida Qizilqumning keng mineral-xomashyo makoniga xizmat qiluvchi tayanch sanoat markaziga aylandi.

Shunday qilib, 1960-yillar oxiriga kelib Navoiy shahri va uning atrofidagi konchilik hududlari o'rtasida transport, energetika, suv ta'minoti, ishlab chiqarish va mehnat resurslari bilan bog'langan hududiy sanoat tizimi shakllana boshladi.

4. NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Navoiy shahrining tashkil topishi va dastlabki rivojlanishini quyidagi tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich — geologik-qidiruv va mineral-xomashyo bazasini aniqlash bosqichi. Bu bosqichda Markaziy Qizilqumning foydali qazilmalari o'rganildi va Uchquduq konining aniqlanishi hududning sanoat jihatidan o'zlashtirilishiga asos yaratdi.

Ikkinchi bosqich — infratuzilmaviy tayyorgarlik bosqichi. 1956-yildan suv ta'minoti, energetika, temir yo'l va aeroport qurilishi boshlandi. Ushbu obyektlar yangi shahar va sanoat korxonalarining faoliyati uchun zarur moddiy asosni yaratdi.

Uchinchi bosqich — sanoat-tashkiliy bosqich. 1958-yil 1-sentabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etildi. Shu davrda Karmana stansiyasi yaqinida shakllanayotgan shaharga Alisher Navoiy nomi berildi.

To'rtinchi bosqich — urbanistik shakllanish bosqichi. 1959–1960-yillarda shahar bosh rejasi, turar-joy massivlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari shakllantirildi. Shahar aholisi uchun mo'ljallangan uy-joylar ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan birgalikda rejalashtirildi.

Beshinchi bosqich — ko'p tarmoqli sanoat markazining shakllanish bosqichi. 1967-yilda Muruntov konida birinchi portlatishning amalga oshirilishi va 1969-yilda birinchi oltin yombisining olinishi Navoiy sanoat tizimining yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

Tadqiqot asosida Navoiy shahrining shakllanish modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

GEOLOGIK QIDIRUV → KON → INFRATUZILMA → NKMK → SHAHAR → KO'P TARMOQLI SANOAT MAKONI

Mazkur model Navoiy shahrining tashkil topishida geologik kashfiyot va urbanizatsiya o'rtasidagi bevosita aloqani ko'rsatadi.

Navoiy shahrining shakllanishining asosiy xronologik bosqichlari

Yil	Muhim tarixiy voqea	Shahar rivojiga ta'siri
1952	Uchquduq konining ochilishi	Markaziy Qizilqumni sanoat o'zlashtirishga asos yaratildi
1956	Suv, GRES, temir yo'l va aeroport qurilishi boshlandi	Infratuzilmaviy poydevor yaratildi
1958	NKMK tashkil etildi va Navoiy shahri qurilishi boshlandi	Sanoat-shahar tizimi shakllandi
1959	Navoiy shahrini 50 ming, keyingi bosqichda 70 ming aholiga mo'ljallash rejasi tasdiqlandi	Uzoq muddatli urbanistik rejalashtirish kuchaydi
1960	Navoiy–Uchquduq temir yo'li ishga tushirildi	Kon va shahar o'rtasidagi iqtisodiy aloqa kuchaydi
1964	Birinchi gidrometallurgiya zavodi ishga tushdi	Uran ma'danini qayta ishlash boshlandi
1967	Muruntov konida birinchi portlatish amalga oshirildi	Oltin sanoatining ishlab chiqarish bosqichi boshlandi
1969	Birinchi oltin yombisi olindi	Navoiy sanoat tizimining iqtisodiy funksiyasi kengaydi

Ushbu xronologiya Navoiy shahrining shakllanishi bir yo'nalishda emas, balki bir vaqtning o'zida geologik, sanoat, transport, energetika, qurilish va demografik jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundan iboratki, Navoiy shahrining industrial maqomi faqat NKMKning mavjudligi bilan belgilanmagan. Shaharning urbanistik tuzilishi ham sanoat funksiyasiga mos ravishda oldindan rejalashtirilgan. Turar-joy, ishlab chiqarish, ma'muriy-jamoat va rekreatsiya hududlarining o'zaro bog'lanishi yangi shahar konsepsiyasining asosiy belgisi bo'lgan.

Shuning uchun ham Navoiy shahrini "kon shahri" tushunchasi bilan cheklash ilmiy jihatdan tor yondashuv bo'ladi. Navoiy shahri XX asrning 60-yillariga kelib ishlab chiqarish va yashash muhitini yagona shaharsozlik tizimiga birlashtirgan yangi industrial shahar sifatida shakllandi.

5. XULOSA

Tadqiqot natijalari Navoiy shahrining tashkil topishi XX asr o'rtalarida Markaziy Qizilqum mineral-xomashyo

resurslarini o'zlashtirish jarayonining bevosita natijasi bo'lganligini ko'rsatadi.

Shahar shakllanishining dastlabki iqtisodiy omili Uchquduq konining aniqlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Konni o'zlashtirish zarurati transport, energetika, suv ta'minoti va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishni taqozo etdi. 1956-yildan boshlab ushbu obyektlarning barpo etilishi yangi sanoat markazining moddiy poydevorini yaratdi.

1958-yil Navoiy shahri tarixida burilish yasagan davr bo'ldi, desa mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tashkil etilishi va Karmana stansiyasi yonida barpo etilayotgan shaharga Alisher Navoiy nomining berilishi natijasida sanoat va shahar rivojlanishi yagona tizimga birlashdi.

1959–1960-yillarda shahar qurilishining uzoq muddatli bosh reja asosida olib borilishi Navoiy oddiy ishchilar posyolkasi emas, balki istiqbolli industrial shahar sifatida loyihalashtirilganini ko'rsatadi.

Navoiy shaharsozligining o'ziga xos jihatlaridan biri turar-joy, sanoat, ma'muriy-jamoat va rekreatsiya hududlarining o'zaro bog'langan holda rejalashtirilganidir. Leningrad me'morlik maktabi vakillarining ishtiroki natijasida shaharning me'moriy qiyofasida galereyal va seksiyali turar-joylar, ko'kalamzorlashtirilgan hududlar, favvoralar va basseynlardan foydalanildi.

A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va G. P. Smorodin faoliyatining 1969-yilda SSSR Davlat mukofoti bilan e'tirof etilishi Navoiy shaharsozlik tajribasining o'z davrida yuqori baholanganini ko'rsatadi. I. B. Orlov va N. I. Simonovning 1975-yilda ser Patrik Aberkrombi mukofotiga sazovor bo'lishi esa Navoiy tajribasining xalqaro urbanistik kontekstda ham e'tirof etilganini ko'rsatadi.

1960-yillarning ikkinchi yarmida Muruntov konining o'zlashtirilishi Navoiy shahrining iqtisodiy funksiyasini yanada kengaytirdi. 1967-yilda birinchi portlatish amalga oshirilishi va 1969-yilda birinchi oltin yombisining olinishi shaharni uran sanoati bilan bog'liq markazdan Qizilqumning ko'p tarmoqli kon-metallurgiya tizimining muhim markaziga aylantirdi.

Shunday qilib, Navoiy shahrining tashkil topishi va rivojlanish tarixini **“geologik qidiruv — kon — infratuzilma — kombinat — shahar — ko'p tarmoqli sanoat makoni”** modeli orqali izohlash mumkin.

Navoiy tajribasi XX asr O'zbekistonidagi industrial urbanizatsiyaning o'ziga xos namunasi bo'lib, uning tarixiy ahamiyati tabiiy resurslarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, cho'l sharoitida zamonaviy shahar muhitini yaratish tajribasida ham namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. *Kombinat xronikasi*. – 1952-yilda “Uchquduq” konining ochilishi; 1956-yilda doimiy suv ta'minoti majmuasi, GRES, Navoiy–Uchquduq temir yo'li va aeroport qurilishining boshlanishi haqidagi ma'lumotlar.
2. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. *Tarix*. – 1958-yil 1-sentabrda NKMK tashkil topgani va shu yili Navoiy shahriga asos solingani haqidagi rasmiy ma'lumot.
3. *Большая советская энциклопедия*. Навои (город в Узбекской ССР). – Navoiy shahrining 1960-yillarda yagona bosh reja asosida qurilgani, seksiyali va galereyal uylar, ko'kalamzorlashtirish, favvoralar va basseynlar, shuningdek, me'morlar tarkibi haqidagi ma'lumot.
4. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. *Kombinat xronikasi*. – 1952–1964-yillardagi tarixiy sanalar: Uchquduq konining ochilishi, infratuzilma qurilishi, NKMK tashkil etilishi, Navoiy–Uchquduq temir yo'lining ishga tushirilishi va birinchi gidrometallurgiya zavodining faoliyati.
5. Navoiy KMK Markaziy arxivi. – 1-jamg'arma, 1–2-ro'yxat, 240-ish, 60-varaq; 1-jamg'arma, 78-ro'yxat, 430-ish, 7-varaq; Navoiy KMK davlat arxivi. – 1-fond, 1–5-ro'yxat, 1467-hujjat, 4-varaq.
6. *Большая советская энциклопедия*. “Навои”. – Navoiy shahrining yagona bosh reja asosida qurilishi, me'morlar A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va muhandis G. P. Smorodin, shuningdek, 1969-yilgi SSSR Davlat mukofoti haqidagi ma'lumotlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida tayyorlangan ilmiy tadqiqot materiallari. – Navoiy shahrining NKMK tashkil topishi bilan bog'liqligi, 1959-yil 13-dekabrda 775-63-sonli qaror, 1960-yil 5-avgustdagi 1072s-sonli topshiriq va uy-joy qurilishi haqidagi ma'lumotlar.
8. *Архитектурный Петербург*. – 2025. – I. B. Orlov va N. I. Simonovning 1975-yilda ser Patrik Aberkrombi xalqaro mukofoti bilan Navoiy va Shevchenko shaharlarini yaratishdagi xizmatlari uchun taqdirlangani haqidagi ma'lumot.
9. Холловэй Д. *Сталин и бомба: Советский Союз и атомная энергия*. – С. 50; *Атомный проект СССР: документы и материалы*. – С. 268–270; *Об организации геологоразведочных работ, добычи урана...* – С. 366.
10. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. *Kombinat xronikasi*. – 1952-yilda “Uchquduq” konining ochilgani haqidagi ma'lumot.
11. O'sha manba. – 1956-yilda doimiy suv ta'minoti majmuasi, GRES, Navoiy–Uchquduq temir yo'li va aeroport qurilishining boshlangani haqidagi ma'lumot.
12. O'sha manba. – 1960-yilda Navoiy–Uchquduq temir yo'lining ishga tushirilishi va 1961-yilda yo'lovchi tashish uchun ochilishi haqidagi ma'lumot.
13. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. *Tarix*. – 1958-yil 1-sentabrda NKMK tashkil etilishi va Navoiy shahriga asos solinishi haqidagi rasmiy ma'lumot.
14. *Навоийский горно-металлургический комбинат. История создания и развития*. – Ташкент: Шарк, 2002. – С. 7–8; Navoiy KMK Markaziy arxivi. – 1-jamg'arma, 78-ro'yxat, 430-ish, 7-varaq.
15. *Большая советская энциклопедия*. “Навои”. – Navoiy shahrining 1960-yillarda yagona bosh reja asosida

qurilgani haqidagi ma'lumot.

16. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1959-yil 13-dekabrdagi 775-63-sonli qarori. – Mazkur qaror haqida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida tayyorlangan ilmiy tadqiqot materialida ham ma'lumot berilgan.

17. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida tayyorlangan ilmiy tadqiqot materiali. – O'rta mashinasozlik vazirligining 1960-yil 5-avgustdagi 1072s-sonli topshirig'i bilan kombinat ishchi-xodimlari uchun uy-joy va boshqa obyektlar qurilishi loyihasi boshlanganligi haqidagi ma'lumot.

18. *Большая советская энциклопедия. "Навои".* – A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va G. P. Smorodin haqida ma'lumot.

19. O'sha manba.

20. SSSR Davlat mukofoti laureatlari haqidagi ma'lumotlar; *Большая советская энциклопедия. "Навои".* – A. V. Korotkov, V. N. Ivanov, I. B. Orlov, N. I. Simonov va G. P. Smorodinning Navoiy shahri bosh rejasi va qurilishidagi faoliyati hamda 1969-yilgi SSSR Davlat mukofoti haqidagi ma'lumot.

21. *Архитектурный Петербург.* – 2025. – "V Назаровские чтения". – I. B. Orlov va N. I. Simonovning 1975-yilda ser Patrik Aberkrombi mukofoti bilan Navoiy va Shevchenko shaharlarini yaratishdagi xizmatlari uchun taqdirlangani haqidagi ma'lumot.

22. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ. *Kombinat xronikasi.* – 1964-yilda Navoiy shahrida birinchi gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilgani va uran ma'danlarini qayta ishlash boshlanganligi haqidagi ma'lumot.

23. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ. *Tarix.* – Oltin ishlab chiqarish bo'yicha rasmiy ma'lumotlar: 1967-yil 1-martda Muruntov konida birinchi portlatish amalga oshirilgani va 1969-yil 21-iyulda 11,82 kg og'irlikdagi birinchi oltin yombisi olingani haqidagi ma'lumot.